

**YUSUF XOS XOJIBNING “QUTADG`U BILIG” DOSTONINI FSMU
TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O`RGANISH.**

Sobirov Zafar Karimovich,

Amrullayeva Mahliyo Abdurahmonovna

O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi 2-sonli

Toshkent akademik litsey o`qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada XI asrda yashagan Yusuf xos Xojibning “Qutadg`u bilig” dostonini yangicha ped texnologiya ya’ni , FSMU texnologiyasi asosida guruh o`quvchilarini guruhlariga bo`lish orqali oson va mukammal tushuntirib o`tilgan.

**Kalit So`zlar:** Qoraxoniylar davlati, Yusuf xos Xojibning “Qutadg`u bilig” dostoni, pandnoma asar, XI asr, X asr, 1141-yil

Akademik litseylarda XI asrda yashab Qoraxoniylar(X asr o`rtalaridan-1141) davrida ijod qilgan mashhur adabiyotshunos olim Yusuf xos Xojibning “Qutadg`u bilig” dostonini o`rganishda FSMU texnologiyasini qo`llash maqsadga muvofiqdir .Ushbu texnologiyani o`quvchilarning o`quv rejasi asosida biror mavzuni o`rganishga kirishish yoki mavzuni o`rganib bo`lgandan so`ng (o`quvchilarning badiiy asar haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) qo`llash mumkin.Mazkur yangicha ped texnologiya o`quvchilarni o`z fikrini himoya qilish,erkin fikrlash,ta`lim jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etish,bilimlarni qay darajada egallaganliklarini baholash hamda o`quvchilarni bahslashish madaniyatiga o`rgatish imkoniyatini beradi.

Bu texnologiyaga ko`ra o`qituvchi mashg`ulotni yakka tartibda yoki o`quvchilarni guruhlariga bo`lib olib boradi.Bunda u o`rganilgan mavzuni belgilab oladi va har bir guruhga FZMU texnologiyasining 4 bosqichli yozilgan qog`ozlarni tarqatadi.

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko`rsating

M- ko`rsatilgan sababni isbotlovchi misol keltiring

U- fikringizni umumlashtiring.

Ma`lumki,akademik litseylar uchun adabiyot fani o`quv dasturida “Qutadg`ubilig” asarini o`rganish uchun 2 soat vaqt ajratilgan.O`quvchilarni bu mavzu bilan ilk bor 4- va 8- sinflarda tanishganliklari e`tiborga olinib,ularga “Qutadg`ubilig – pandnoma asar” degan topshiriq beriladi va FSMU texnologiyasi shartiga ko`ra ushbu topshiriqni 10 daqiqa vaqt ichida bajarish kerakligi aytiladi.

Guruhlar o`z fikrlarini qog`ozga tushiradilar.Guruh a`zolaridan vakil chiqib harbir bosqich bo`yicha yozilgan ma`lumotni alohida-alohidao`qiydi.Jumladan,guruhlardan biri quyidagicha javob beradi:

F-Yusuf xos Hojib “Qutadgu bilig” dostonida odob-axloq masalalarini yoritishga kata ahamiyat bergan.O`zining hayotiy tajribalariga tayangan nolda

yaxshi xislat vafazilatlarni ezgulik, salbiy xususiyatlarni esa yomonlik nom ibilan atagan. U kishilarni ezgu ishlar qilishga undagan.

S- Adib yaxshi tarbiyaning natijasi kishining xulqida, axloq-odobida, ulug'larga hurmatda yaqqol ko'rinadi, deydi. Ulug'lik bilan mag'rurlanib ketish yaramaydi. Har bir kishi qanchalik ulug'likka erishsada, o'zini kamtar tutishi kerak. Chunki kamtarlik ezgu xislatlardan deb ko'rsatadi.

M- Ulug'lar so'zin tut, ishinqil, bajar,
Ulug' so'zin olgan tilakka etar. Yoki:
Seni siz deganlarni sensizlagil,
Yana unda nafzal javob so'zlagin.

U Adib o'gitlari qadr-qimmatni, obro'-e'tiborni tushiruvchi, el-yurt ishi gap odatlardan tiyilishga, ko'ngilni boy qiluvchi xislatlarni o'zida shakllantirishga undaydi.

2- guruh vakili esa masalaga quyidagicha munosabat bildirdi:

F- Adib o'zasarida har bir kishi himmatli baland va muruvvatli bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi.

S- Zero, adolatli siyosat yuritish, davlat ravnaqi, el-yurtning gullab yashnashi uchun himmat va muruvvat zarurligini ta'kidlaydi.

M- Yusuf xos Hojib hikmatlarga himmat, muruvvat zarurligini aytadi. Muruvvati yo'q kishini o'lik- ikki dunyo manfaatlaridan bebahra deb biladi:

Kishilikka himmat, muruvvat zarur,
Kishi qadri himmat, muruvvat bilan. Yoki:
Kishi himmat bo'lmasa u o'lik,
U dunyo bu dunyo emas bahralik.

U Yusuf xos Hojibning davlatni mustahkamlash, el-yurtning gullab-yashnashi uchun bergan maslahatlarini, olijanob insoniy fazilatlarga ega bo'lish haqidagi o'git-nasihatlarini asar odob-axloq majmuasidan iborat ekanligini ko'rsatadi.

O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini tinglab, mashg'ulotga yakun yasaydi, aytilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi, ularning fikrini to'ldiradi, fikrlar izohlanadi. Demak, "Qutadg'u bilig dostoni – pandnoma asar!" degan xulosa qiladi. Asarda inson va uning ijtimoiy mohiyati, hayotdagi o'rni va vazifasi har tomonlama tahlil qilinadi. "Qutadg'u bilig" da oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlanadi. "Qutadg'u bilig" da axloq, odob, sadoqat va va sevgi kabi masalalar haqida hikmatli so'zlar yuritadi. U ilm va ma'rifatga saodatning kaliti deb qaraydi. Shuning

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

uchun ham o'z dostonini "*Qutadg'u bilig*" deb ataydi. Unda ilm va ma'rifatni targ'ib qiladi, olimlarni ulug'laydi, davlat boshliqlarini ilm-fan ahllaridan ta'lim olishga va ularning maslahatlari bilan ish ko'rishga da'vat qiladi.

Yusuf Xos Hojib haqida ma'lumot beruvchi yagona manba "*Qutadg'u bilig*" dostonidir. U 1069-yilda "*Qutadg'u bilig*" ("Saodatga eltuvchi bilim") asarini Bolasog'unda yoza boshlaydi va 1070-yilda Koshg'arda tugatadi. Asarni qoraxoniylar hukmdorlaridan bo'lgan Tavg'och Bug'roxonga taqdim etadi. "*Qutadg'u bilig*" Tavg'och Bug'roxonga ma'qul kelib, Yusufga "Xos Hojib" (eshik og'asi) martabasini beradi. O'shandan boshlab adibni Yusuf Xos Hojib deb atay boshlaydilar.

Mashg'ulotni shu tarzda tashkil etish dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning ma'naviyatimiz durdonasi bo'lmish "*Qutadg'u bilig*" dostonini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

